

**DORIVOR VA ZAHARLI O`SIMLIKLAR****Ermatova Marjona Mansurjon qizi***Toshkent shahari Olmazor tumani Abu Ali ibn Sino nomidagi  
Ixtisoslashtirilgan maktabining 9-“A” sinf o`quvchisi***DORIVOR O`SIMLIKLAR**

Dorivor o`simliklar tabiatda va inson hayotida ahamiyati juda ham katta. Biz ularsiz hayotimizni tasavvur qilolmaymiz. O`simliklar dunyosi shu jumladan, dorivor o`simliklar ham tabiat boyliklaridan biri hisoblanadi. Inson va hayvonlar organizmida ro`y beradigan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar ichida shifobaxsh o`simliklardan tayyorlanadigan dorilarning ahamiyati katta. Ilmiy tabobatda ishlatiladigan dorivor preparatlarning deyarli 45%i o`simliklardan olinadi. Dorivor o`simliklarning 700 ga yaqin turi mavjud. Yalpiz, shirinmiya, isiriq, rayhon, kashnich, zafaron, sebarga, arpabodiyon, na`mataklar ham shular jumlasidandir.

Rayhon. Rayhon yoqimli hid beruvchi o`simlik bo`lib, dorivorlik xususiyatlari juda ko`p. U butun dunyo bo`ylab bazilik deb nom olgan. Ammo O`zbekistonda rayhon dab ataladi. U tabiiy antibiotik bo`lib, isitma tushirish, bakteriyalarga qarshi vosita sifatida qo`llaniladi. Ushbu o`simlik tarkibidagi moddalar mushukni og`rig`ini kamaytiradi, yallig`lanishni oldini oladi, balg`amni bronxlar va o`pkadan olib tashlaydi, yo`tal va burunning oqishini to`xtatadi.

Arpabodiyon. Mevalari juda foydali. Mevasining tarkibida saratonga qarshi vosita-anetol, C vitamin, qondagi xolesterinni kamaytiradigan moddalar mavjud. Bundan tashqari arpabodiyon stressni kamaytiradi, asabni tinchlantiradi, ovqat hazm qilish tizimidagi kasalliklar, shamollash, stomatit va faringitga davo bo`ladi.

Yalpiz. Barg va poyalari hushbo`y hidga ega bo`lishining sababi uning tarkibidagi mentol va efir moylari. U asabni tinchlantirishga yordam beradi, balg`amni ko`chiradi, nafas yo`li kasalliklarining oldini oladi va jigar xastaliklarini davolashda yordam beradi. Uning yerustki qismidan tayyorlangan qaynatmasi tish og`rig`i, milk yallig`lanishini davolashda foydalaniladi.

Isiriq. Quritilgan isiriq kuydirib biroz hidlansa bosh og`rig`i yo`qoladi, urug`ining qaynatmasi nafas qisishida davo bo`ladi. O`simlikning qaynatmasi katarakta(ko`z gavharining xiralashi)ni davolaydi.

Aloe. Bargi seret va sersuv, uxib oliongach, 10 kun davomida salqin joyda saqlanib, keyin dori sifatida ishlatiladi. Uni bargini qirg`ichda qirib asal bilan iste`mol qilinsa shamollash va oshqozon ichak kasalliklariga davo bo`ladi.

Shirinmiya ildizpoyali ko`p yillik o`t. Xalq tabobatida ildizpoyasidan tayyorlangan qaynatma quruq yo`tal, tomoq og`rig`iga davo bo`ladi. uning balg`am ko`cherish xususiyati ham bor.

Sebarga namlik yuqori bo`lgan hududlarda ko`p uchraydi. Qizil sebgadan turli damlamalar tayyorlanadi va taloq kasalliklariga davo bo`ladi. O`tloq sebgasi bronxit,

yo`tal,astma,kamqonlik,bezug uchun ishlatiladi.Oq sebgadan og`riq qoldiruvchi va kuch beruvchi dori tayyorlanadi.

Dunyoda dorivor o`simliklar bilan birga zaharli o`simliklar ham mavjud. Ularga: kanakunjut, bangidevona, mingdevona, zaharli ayiqtovon,ageratina,belladonna,klobuk jangchisi.

Kanakunjutning urug`ida zaharli moddalar ko`p uchraydi. Bu o`simlikdan zaharlangan odamda ich ketishi, ko`ngil aynishi, darmonsizlik kabi holatlar kuzatiladi. Ko`pincha o`z joniga qasd qilganlar kanakunjut yeydi. Uning urug`ida zahardan tashqari,40-50% moy mavjud. Undan tabobatda soch va terini parvarishlashda foydalanish mumkin.

Ageratina .U shunchalik zaharliki,xatto uning yonida o`t yegan sigirning sutini ichgan odam ham zaharlanadi.

Belladonadan kuchli zaharlangan odamda gallyutsinatsiya boshlanadi,atrofini umuman sezmaydi,oxiri nafas olish markazining falaj bo`lishidan o`ladi.

O`quvchilarga maslahatim shuki ,tabiat qo`yniga dam olishga borsangiz,har qanday o`simlikni ushlab ,hattoki hidlab ko`rish mumkin emasligi esingizdan chiqarmang.Ba`zi o`simliklar ko`rinishidan beozorgina bo`lsa ham,aslida ularga tegishning o`zi o`linga olib keladi.Chunki hech kim u hayotingizga nuqta qo`ymasligiga kafolat bermaydi.Dorivor o`simliklardan ham zaharlanish mumkin.Qachonki ,ulardan

me`yorida ortiq foydalansangiz. Shuning uchun o`simliklardan shifokorlar tavsiyasisiz foydalanmang!

#### **FOYDALANILGANADABIYOTLAR:**

5-sinfbiologiya, <https://www.agro.uz> , <https://www.iupr.ru>, <https://daryo.uz>